


**2020- yil yakuni**



## **FARG'ONA VILOYATI BO'YICHA SO'G'LIQNI SAQLASH TO'G'RISIDA TAHLILIIY MATERIAL**



**FARG'ONA VILOYAT  
statistika boshqarmasi**



**Tibbiyot muassasalari tarmog‘iga shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta’minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo‘nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.**

**Shifoxona muassasasi** – kecha-yu kunduz tibbiy yordam ko‘rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo‘ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

**Aholining kasallanishi** yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko‘rikdan o‘tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo‘yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.



## FARGONA VILOYAT 2020-YIL YAKUNIGA KO'RA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloytida 126 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan (65 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. Jami shifoxonalar soni 2019-yilga nisbatan 1,1 %ga yani (1 taga) oshdi.

**Ma'lumot uchun:** ► **Shifoxona** — statsionar sharoitda tibbiy yordam ko'rsatuvchi sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanadi.

► **Ambulatoriya-poliklinikalari** ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam ko'rsatuvchi va (yoki) tibbiy tahlil o'tkazadigan sog'liqni saqlash muassasasi (poliklinikalar, ambulatoriya, dispanserlar, tibbiy-sanitariya qismlari va boshqalar) hisoblanadi.



Farg'ona viloytida faoliyat yuritayotgan davolash-profilaktika muassasalarini mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (*birlik*)




2020-yil yakuniga ko'ra, Farg'ona viloytida 518 ta ambulatoriya-poliklinikalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 2,22 % (233 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya-poliklinikalari soni bir yil mobaynida 1,3 %ga yani (1 taga) kamaygan.




## 2020- yil yakuniga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona va ambulatoriya-poliklinikalari soni (birlik)

### Ambulatoriya-poliklinikalari soni



### Shifoxonalar soni




Farg'ona viloytida faoliyat barcha mulkchilik shaklidagi yuritayotgan shifoxonalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahar, (40 ta) Qo'qon shahar (19 ta), Marg'ilon shahar (6 ta) hamda Quvasoy shahar (5 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan shifoxonalar soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Bag'dod (1 ta) hamda Buvayda tumanlarida (1 ta), kuzatilmoqda.

Shuningdek, barcha mulkchilik shaklidagi faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha Farg'ona viloytida tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahar (85 ta), Qo'qon shahar (56 ta), Marg'ilon shahar (33 ta), Uchko'prik tumani (32 ta), Oltiariq tumani (28 ta) hamda O'zbekiston tumanlar (28 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Bag'dod (13 ta) va So'x tumanlarida (14 ta) kuzatilmoqda.





## Farg'ona viloyati bo'yicha 2020- yil mobaynida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni (ming, kishi)




2020-yil oxirida Farg'ona viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni 1242,0 kishini tashkil etib, tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahariga to'g'ri keldi va uning soni 3062,8 ming kishi ekanligi qayd etildi. Eng kam ko'rsatkich esa Yozyovon tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 144,8 ming kishini tashkil etdi.





## Farg'ona viloyatda shifoxona muassasalarining bemor o'rirlari soni (2020-yil oxirida, birlik)




2020-yil oxirida Farg'ona viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rirlari soni 19861 birlikni tashkil etib, tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahriga to'g'ri keldi ya'ni 7203 birlikni tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Yozyovon tumani to'g'ri keldi ya'ni 231 birlikni tashkil etdi.



## Farg'ona viloyati shahar va tumanlari kesimida shifoxonalar va bemor o'rirlari soni (2020-yil yanvar-dekabr)



3062,8



1227,2



39,9



Shifoxonalarda  
bemor o'rirlar  
soni, ming birlik



Kichik korxonalar va  
mikrofirmalardagi  
bemor o'rirlar soni,  
ming birlik



10 000  
aholiga  
nisbatan  
bemor  
o'rirlari soni

2020- yilda Farg'ona viloyat bo'yicha shifoxonalarda jami 3062,8 mingta bemor o'rirlari foydalanishda bo'lgan, shundan 18,7 % (1227,2 mingtasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlarga tegishli, 10 000 aholiga nisbatan bemor o'rirlari soni 39,9 tani tashkil etmoqda.



## Tez tibbiy yordam faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (yil oxirida)



Tez tibbiy yordam stansiyalari kichik stansiyalar va punktlari soni 2020-yilda 397 tani tashkil etib, shu jumladan, 2020-yilda bajarilgan chaqiriqlar soni 13272,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1016.1% (13060.9ming)ga oshdi. Shuningdek, 2020-yilda tez tibbiy yordam ko'rsatilgan shaxslar soni 26214,1ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,74 martaga ortdi.



Farg'ona viloyatida mutahassisliklar  
bo'yicha o'rta tibbiy xodimlar soni  
to'g'risida ma'lumot  
(yil oxirida, kishi)

2019- y.

43890

2020- y.


43621

2020- yil oxiriga  
Farg'ona viloyatida  
mutahassisliklar bo'yicha  
o'rta tibbiy xodimlar soni  
43621 kishini tashkil  
etgan bo'lib, 2019-yilda bu  
ko'rsatkich 43890 kishini  
tashkil etgan. 2020-yil  
oxiriga nisbatan 0,99 %ga  
kamaygan.





## Farg'ona viloyatinig shahar va tumanlari kesimida kasallikalarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinish bo'yicha taqsimlanishi (2020- yil oxirida)



Farg'ona viloyatinig kasallikalarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinish 18719,6 ming kishini tashkil etib, 2019-yilda esa 21271,9 ming nafari bo'lgan 2021-yilga nisbatan (0,88%)ga kasallik ozaygan.